


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60610700-Televizion texnologiyalar bakalavriat
ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. Umumiy tavsifi

60611100-Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60611100-Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Televizion texnologiyalarga oid jarayonlar, raqamli televideniya va kinoda ovoz va tasvirni yozib olish, qayta ishlash, saqlash, chop etish, yoritishni loyihalashtirish va boshqarishga oid qurilma va dasturlar ob'ektlarida tasvirga olish, ovoz yozish jarayonlarida operator yordamchisi va operator, ularga ishlov berish jarayonlarida yordamchi montajchi va montajchi, yoritish jihozlari va uskunalari ekspluatatsiyasida yorituvchi texnik, qurilma jihozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida texnik xizmat ko'rsatuvchi usta, amaliy dasturiy paketlar yordamida ishlov berish va qayta ishlash jarayonlarida dasturchi kabi kasbiy faoliyati turlari

bilan shug'ullanadi. Audio va video mahsulotlar yaratish, kino va televideniada tasvirga olish, qayta ishlash, kino, televideniada, teatr, ommaviy tomoshalar va shou dasturlarda, maxsus inshootlarda yoritishni rejalashtirish, amalga oshirish va boshqarish bo'yicha kompleks masalalarni yechish, audio-video kontentlar yaratishdagi mavjud texnologiyalar va texnologik jarayonlar, ularni loyihalash va modellashtirish uchun jihozlarni tanlash, metodlari, usullari va vositalar, ishlab chiqarish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasi, ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishni qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida muhandis-texnolog.

60611100 - Televizion texnologiyalar bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- loyihaviy-konstruktorlik.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60611100 - Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ishlab chiqarish faoliyatida

televizion texnologiyalar sohasiga tegishli muammolarni o'rganish va ularni yechish chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalda qo'llash;

audio, kino, video, foto mahsulotlarini ishlab chiqarishning namunaviy va eng yangi texnologiyalarni o'rganish va tatbiq etish;

tasvirga olish uskunalari ekspluatatsiyasi va texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

audio, kino, video, foto uskunalar vazifalari parametrlarini belgilash va ish qobiliyatini baholash bo'yicha sinovlar o'tkazish;

ekspluatatsiya jarayonida almashtirish uchun uskunalarni tanlash;

yorug'lik manbalari tizimlari, uzellari va detallarini loyihalashtirish;
energiyani tejovchi texnologiyalardan foydalanishi va tatbiq etish;
audio va video texnologiyalarni o'zlashtirish va ular vositasida audio-video mahsulotlar ishlab chiqarish, fotografiya xizmatini ko'rsatish;
televidenie va kino san'ati sohasida turli film va ko'rsatuvlarni yaratishda operatorlik qilish;

yorug'lik manbalari, yorug'lik uskunalari, yorug'lik texnikaviy va nurlantiruvchi qurilmalar uzellarini, qismlarini ishlab chiqish va yoritish, nurlantiruvchi qurilmalaridan foydalanuvchi korxonalarda mutaxassis sifatida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

televizion texnologiyalar sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

televizion texnologiyalar sohasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan televizion texnologiyalarga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

televizion mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

televizion texnologiyalar sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

televizion texnologiyalar sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

audio, kino, video, foto mahsulotlarini ishlab chiqarishning namunaviy va eng yangi texnologiyalarni o'rganish va tatbiq etish;

tasvirga olish uskunalari ekspluatatsiyasi va texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

audio, kino, video, foto uskunalar vazifalari parametrlarini belgilash va ish qobilyatini baholash bo'yicha sinovlar o'tkazish;

ekspluatatsiya jarayonida almashtirish uchun uskunalarni tanlash;

yorug'lik manbalari tizimlari, uzellari va detallarini loyihalashtirish;

energiyani tejovchi texnologiyalardan foydalanishi va tatbiq etish;

audio va video texnologiyalarni o'zlashtirish va ular vositasida audio-video mahsulotlar ishlab chiqarish, fotografiya xizmatini ko'rsatish;

televidenie va kino san'ati sohasida turli film va ko'rsatuvlarni yaratishda operatorlik qilish;

yorug'lik manbalari, yorug'lik uskunalari, yorug'lik texnikaviy va nurlantiruvchi qurilmalar uzellarini, qismlarini ishlab chiqish va yoritish, nurlantiruvchi qurilmalaridan foydalanuvchi korxonalarda mutaxassis sifatida ishlash;

audio, video va media mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha ijodiy-muhandislik guruhi ishini tashkil etish, turli fikrlar sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

amaliyotda televizion texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va uslubiyotlarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash;

teatr, ommaviy va shou dasturlar, madaniyat, me'moriy inshootlar, sport inshootlari va boshqa maxsus inshootlarini yoritishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda loyihalashtirish;

turli ko'rinishdagi ovoz yozish studiyalari, kino va televideniya tasvirga olish pavilonlari va studiyalarini me'yoriy talablar asosida loyihalashtirish, jihozlash, audio va video uskunalari, tasvirga olish va yoritish uskuna va jihozlarni o'rnatish va sozlash xizmatini ko'rsatish;

ekran san'atlari uchun vizual va audio effektlar yaratish hamda turli ko'rinishdagi filmlar va fonogrammalarni montaj xizmatini ko'rsatish;

audio va video texnologiyalarni o'zlashtirish va yaratishni, mahsulotlar ishlab chiqarishni, ularni chop etish bilan bog'liq ijodiy faoliyatni boshqarish;

qisqa metrajli va to'liq metrajli badiiy va hujjatli filmlarni yaratishdagi operatorlik faoliyatini olib borish va boshqarish;

televidenie va boshqa ekran san'ati sohasidagi operatorlik faoliyati olib borish va boshqarish;

ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4500	150	1-7
1.01	UEY1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FAL1204	Falsafa	120	4	1
1.04	XOT1108	Xorijiy til 1,2	240	8	1,2
1.05	HIS1112	Hisob(Calculus) 1,2	360	12	1,2
1.06	FIZ1110	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.07	DIT1406	Differensial tenglamalar	180	6	4
1.08	CHA1306	Chiziqli algebra	180	6	3
1.09	DAS1110	Dasturlash 1,2	300	10	1,2
1.10	AKY1104	Akademik yozuv	120	4	2
1.11	MUG1204	Muhandislik grafikasi	120	4	2
1.12	MAB1404	Ma'lumotlar bazasi	120	4	4
1.13	KIA1304	Kiberxavfsizlik asoslari	180	6	3
1.14	EVS1310	Elektronika va sxemalar 1,2	300	10	3,4
1.15	DIT1306	Diskret tuzilmalar	180	6	3
1.16	ALT1404	Aloqa tarmoqlari	120	4	4
1.17	SIA1406	Sun'iy intellekt asoslari	180	6	3
1.18	EVS1406	Ehtimollik va statistika	180	6	4
1.19	INL1704	Individual loyiha	120	4	7
1.20	KOG1506	Kompyuter grafika	180	6	5
1.21	TIC1606	Televizion ishlab chiqarish asoslari	180	6	6
1.22	VEK1506	Vizual effektlar va kompozitsiya	180	6	5
1.23	FMO1506	Film montaji va ovoz dizayni	180	6	5
1.24	VRT1704	VR va AR texnologiyalar	120	4	7
1.25	YOH1704	Yorug'lik, ovoz va harakat	120	4	7
2.00		Tanlov fanlar*	1800	60	4-7
		Jami:	6300	210	1-7
Kvalifikatsiya:		Teleoperator. Ovoz yozish va audio-video montaj muhandisi			
	MAA1830	Malakaviy amaliyot	900	30	8
	YDA1800	Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami:	900	30	
		Hammasi:	7200	240	

*Mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining talov fanlari qismiga "O'zbek (rus) tili" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:


Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriyatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriyatning o'quv jarayoni, televizion mahsulotlari, televizion va media texnologiyasi, televizion va media ishlab chiqarish, teleoperator, vizual dizayner, audiovizual muhandis, yoritish texnologiyasi, kompyuter grafikasi, dizayn, grafik dizayn, maxsus effekt, vizual effekt, virtual reallik, vizualizatsiya, media, kommunikatsiya, kinomotografiya, dramaturgiya, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchi, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshket axborot texnologiyalar universiteti**



Rektor  **B. Maxkamov**

2024 yil « 14 » *iyul*

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**



Direktor  **Sh. Boltaboyev**

2024 yil « 25 » *iyul*

M.O'.

“O'zbekfilm” kinokonserni

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti**



Rektor  **N. B. Sayfullaev**

2024 yil « 14 » *iyul*

M.O'.

**“Respublika teleradiomarkazi” DM
Bosh direktorining birinchi o'rinbosari,
Toshkent telemarkazi**



Direktor  **B. Adilov**

2024 yil « 14 » *iyul*

M.O'.



Bosh direktor  **N. Muratov**

2024 yil « 14 » *iyul*